

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil 14.08. № IXT-117 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Bolalik davri asab kasalliklari
O'quv dastur nomi	“ Tibbiy genetika”
O'qish turi	Ixtisoslashtirish kursi
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Shamansurov Sh.Sh., Sayfutdinova S.R.
Siklning umumiy soati	864 kredit
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	
 t.f.d., professor Shamansurov Sh.Sh.	 t.f.d., dosent Sayfutdinova S.R.
Maqsad	Bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash dasturi bo'yicha O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev «2018-2022 yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori imzolandi. Ushbu innovasion loyihamiz O'zbekiston Respublikasi milliy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash orqali xalqaro standartlariga o'tishini ta'minlashga ko'maklashadi va bu bilan davlatimizning jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini egallashga hissasini qo'shadi deb o'ylaymiz.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Umumiy amaliyot shifokorlari va boshqa tor mutaxassislari

Sikl vazifalari	1. Skrining markazlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash va amaliy sog‘liqni saqlashga zamonaviy jahon tajribasini joriy etgan holda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish. 2. Rejalashtirilayotgan tadbirlarni amalga oshirish yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni skrining tekshiruvidan o‘tkazishni 95 foizgacha oshirish va bolalar nogironligiga olib keladigan irsiy kasalliklarga chalingan bolalarni barvaqt aniqlash bo‘yicha diagnostika va davolash tadbirlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. 3. Shaharlar va tumanlar tibbiyot birlashmalarining markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalarida homilador ayollarning tug‘ishidan oldin ommaviy ultratovush tekshiruvidan o‘tkazilishini joriy etish. 4. Bolalarda irsiy kasalliklarga barvaqt tashxis qo‘yish usullarini takomillashtirish orqali chaqaloqlarni ommaviy tekshirish, shuningdek, bemor bolalarni dori vositalari va davolaydigan ovqatlar bilan ta‘minlash orqali irsiy kasalliklarni davolash samaradorligini oshirish.
Sikl tarkibi	1.MODUL: Bosh miya yarim sharlarining anatomiyasi, fiziologiyasi, sitoarxitektonikasi. 2.MODUL: Tibbiy genetikaning nazariy asoslari. 3.MODUL: Bosh miya tug‘ma nuqsonlari. Bosh va orka miya disgeneziyalar. 4.MODUL: Asab tizimining degenerativ kasalliklari. 5.MODUL: Genetik epilepsiya. 6.MODUL: Ruxiy uzgarishlar nasl kasalliklarda. Naslga bogliq bulgan ruxiyat kasalliklar. 7.MODUL: Xromosom kasalliklar etiologiyasi va klinikasi. 8.MODUL: Tibbiy genetika tekshirish usullari 9.MODUL: Irsiy kasalliklar. 10.MODUL: OITSning nevrologik ko‘rinishlari. 11.MODUL:Neyrovizualizasiya ahamiyati EEG ; EMG. 12.MODUL: Ma‘rifat va ma‘naviyat.

O'qish bazalari

1. Shaxar 1-son bolalar klinik shifoxonasi



2. U.K.Qurbonov nomidagi bolalar psixonevrologik shifoxonasi



3. Respublika "Ona va bola skriningi" markazi

